

**“AUTIZM SINDROMIGA EGA BOLALARDA NUTQ VA
KOMMUNIKATIV KO‘NICKMALARNI SHAKLLANTIRISH
MUAMMOLARI”**

Mirsultonova Nozimaxon Jahongir qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Special Pedagogy fakulteti talabasi

Mirsultonovanozima24@gmail.com

+998 95 206 04 24

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada autizm sindromiga ega bolalarda nutq va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish muammolari yoritilgan. Autizm spektri buzilishlari (ASB) bo‘lgan bolalarda nutq rivojlanishining sustligi, muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar va ijtimoiy o‘zaro aloqalarning cheklanganligi defektologiya sohasida eng dolzarb muammolardan biri sanaladi. Tadqiqotda autistik bolalarda nutqiy jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinib, muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda uchraydigan asosiy to‘siqlar ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, logopedik mashqlar, sensor integratsiya, vizual qo‘llanmalar va interaktiv texnologiyalar orqali nutqiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashning samarali usullari taklif etiladi. Maqola autizm spektridagi bolalar bilan ishlovchi defektolog, logoped va maxsus pedagoglar uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash zarurligini asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *autizm spektri, nutqiy rivojlanish, kommunikativ ko‘nikmalar, defektologiya, logopedik mashqlar, maxsus pedagogika.*

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются **проблемы формирования речи и коммуникативных навыков у детей с синдромом аутизма**. У детей с расстройствами аутистического спектра (PAC) замедленное развитие речи, трудности во вступлении в коммуникацию и

ограниченность социальных взаимодействий являются одними из наиболее актуальных проблем в дефектологии. В исследовании анализируются особенности речевых процессов у детей с аутизмом, выделяются основные препятствия в развитии коммуникативных навыков. Также предлагаются эффективные методы поддержки речевого развития посредством логопедических упражнений, сенсорной интеграции, визуальных материалов и интерактивных технологий. Статья имеет научно-практическую значимость для дефектологов, логопедов и специалистов специальной педагогики, обосновывая необходимость применения инновационных подходов в образовательном процессе детей с РАС.

Ключевые слова: расстройства аутистического спектра, речевое развитие, коммуникативные навыки, дефектология, логопедические упражнения, специальная педагогика.

ANNOTATION: This article addresses the *problems of speech and communication skills development in children with autism spectrum disorder (ASD)*. Children with ASD often experience delayed speech development, difficulties in initiating communication, and limitations in social interactions, which are considered among the most pressing issues in defectology. The study analyzes the specific features of speech processes in autistic children and identifies the main barriers to communication skills formation. Furthermore, effective approaches to supporting speech development are proposed, including speech therapy exercises, sensory integration, visual aids, and interactive technologies. The article has scientific and practical significance for defectologists, speech therapists, and special education professionals, highlighting the necessity of implementing innovative methods in the education of children with ASD.

Keywords: autism spectrum disorder, speech development, communication skills, defectology, speech therapy exercises, special education.

KIRISH

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- “Autizm” (yunoncha *autos* — “o‘zi”) so‘zidan olingan. Bu shaxsning tashqi dunyodan o‘ziga tortilib, ko‘proq ichki olamiga berilib yashashini bildiradi.

- **Tibbiy ma’nosi:** Autizm — bu asosan **bola rivojlanishining erta bosqichida** namoyon bo‘ladigan **neyropsixologik buzilish**, u nutq, muloqot, ijtimoiy munosabat va xulq-atvorning o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

- **Asosiy belgilar:**

- boshqalar bilan muloqot qilishda qiyinchilik;
- ko‘zga qarashdan qochish;
- nutq rivojlanishining sustligi yoki umuman bo‘lmasligi;
- takrorlanuvchi harakatlar (stereotip xatti-harakatlar);
- o‘zgarmas muhitga o‘rganib qolish.

- **Atama kelib chiqishi (1911-yil)**

- “Autizm” so‘zini birinchi bo‘lib shveysariyalik psixiatr **Eugen Bleuler** ishlatgan.

- U bu so‘z bilan shizofreniya kasalligiga chalingan bemorlarning tashqi dunyodan chetlashib, ichki olamiga berilib qolish holatini ta’riflagan.

- **Ilk ilmiy ta’rif (1943–1944-yillar)**

- **Leo Kanner (1943)** – AQSh psixiatri autizmnni mustaqil kasallik sifatida ta’riflagan. U “Erta bolalik autizmi” (early infantile autism) atamasini kiritib, nutqiy rivojlanishning sustligi, ijtimoiy muloqotdagi qiyinchilik va stereotip harakatlarni asosiy belgilar sifatida ko‘rsatgan.

- **Hans Asperger (1944)** – Avstriyalik shifokor autizmnning engilroq shaklini (hozirda “Asperger sindromi” deb ataladi) ta’riflab, bolalarda intellekt saqlangan, lekin ijtimoiy muloqotda qiyinchilik bo‘lishini ko‘rsatgan.

20-asr oxiri – 21-asr boshlarida

- Autizm mustaqil nevrologik rivojlanish buzilishi sifatida ajratila boshladi.
- Tibbiyotda “autizm spektri buzilishi (ASB)” tushunchasi joriy qilindi, chunki kasallikning yengil va og‘ir ko‘rinishlari mavjudligi aniqlandi.

Zamonaviy davr (2013-yildan hozirgacha)

- **DSM-5 (Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders, 5-nashri)** ga ko‘ra, autizm endilikda umumlashtirib “**Autizm spektri buzilishi (ASB)**” deb ataladi.
 - Bugungi kunda autizmnинг sabablari ko‘p omilli deb qaraladi: genetik, neyrobiologik va atrof-muhit omillari.

Autizm spektri buzilishlari (ASB) — bu bolalarning nutq, ijtimoiy muloqot va xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan neyropsixologik xususiyatlar majmuasidir. So‘nggi yillarda dunyo bo‘yicha autizm tashxisi qo‘yilgan bolalar soni ortib borayotgani kuzatilmoqda. Nutq va kommunikativ ko‘nikmalar autistik bolalar uchun ijtimoiy moslashuvning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Biroq ular odatda so‘z boyligining sust rivojlanishi, muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar va stereotip xatti-harakatlari tufayli bu jarayonda ko‘plab muammolarga duch keladilar.

Mazkur maqolaning maqsadi — autizm sindromiga ega bolalarda nutq va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishdagi asosiy to‘siqlarni aniqlash hamda samarali pedagogik yondashuvlarni tahlil qilishdir.

Autizmning asosiy turlari

1. **Kanner sindromi (klassik autizm)**
 - Leo Kanner (1943) ta’riflagan.
 - Belgilari: nutq rivojlanishida sustlik yoki umuman yo‘qligi, ijtimoiy muloqotdan chetlashish, takrorlanuvchi harakatlar.
 - Odatda bolalikning erta davrida (2-3 yoshdan oldin) namoyon bo‘ladi.
2. **Asperger sindromi**
 - Hans Asperger (1944) tomonidan tasvirlangan.
 - Intellekt va nutqiy rivojlanish odatda saqlangan, lekin ijtimoiy muloqot qiyinlashgan.
 - Bolalarda qiziqish doirasi tor bo‘ladi (masalan, faqat bir mavzuga qiziqib qolish).

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- Ko‘p hollarda “yengil autizm” deb ataladi.

3. Atipik autizm

- Belgilari klassik autizmga o‘xshash, ammo to‘liq to‘g‘ri kelmaydi.
- Kechroq (3 yoshdan keyin) namoyon bo‘lishi mumkin.
- Nutq va ijtimoiy qiyinchiliklar turlicha darajada bo‘ladi.

4. Retta sindromi (kam uchraydi)

- Asosan qiz bolalarda uchraydi.
- 6–18 oylikgacha normal rivojlanadi, keyin asta-sekin nutq va motorika ko‘nikmalarini yo‘qota boshlaydi.

- Genetik mutatsiya bilan bog‘liq (MECP2 geni).

5. Boshqa o‘ziga xos rivojlanish buzilishlari (PDD-NOS)

- “Aniqlanmagan autizm” deb ham yuritiladi.
- Belgilar aralash bo‘ladi: nutqiy, ijtimoiy va xulqiy buzilishlar, lekin aniq sindromlardan biriga to‘liq mos kelmaydi.

Nutq va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishdagi muammolar

1. Ijtimoiy aloqa qiyinchiliklari

- Autizmga ega bolalar muloqotga kirishishni xohlamasligi yoki ehtiyoj sezmasligi mumkin.

- Bu holat nutqiy rivojlanishni kechiktiradi.

2. Sensor sezgirlik va chalg‘ish

- Yorug‘lik, tovush, hid, teginishga ortiqcha sezgirlik bola e’tiborini nutqiy mashhg‘ulotlardan chalg‘itadi.

- Kommunikativ vaziyatlarda o‘zini noqulay his qilishi mumkin.

3. Nutqiy imitatsiya muammolari

- Bolalar so‘z yoki gaplarni takrorlashga qiynaladilar.
- Bu so‘z boyligi va gap tuzish jarayonini sekinlashtiradi.

4. Takroriy xatti-harakatlar

- Bir xil harakatlarni ko‘p marotaba bajarish (stereotipiylar) nutqiy mashhg‘ulotlarga xalaqit beradi.

5. Motivatsiyaning pastligi

- Bola nutqiy muloqot orqali biror maqsadga erisha olishini tushunmaganda, so‘zlashishga qiziqishi kamayadi.

6. Individual rivojlanishdagi farqlar

- Har bir bolaning autizm darajasi, qiziqishi va imkoniyati turlicha bo‘lgani uchun yagona metod har doim ham samarali bo‘lavermaydi.

7. Ota-onal va pedagoglar hamkorligining yetishmasligi

- Uy sharoitida mashg‘ulotlar davom ettirilmasa, nutqiy ko‘nikmalar mustahkamlanmaydi.

Nutq va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish yo‘llari

1. Logopedik mashg‘ulotlar

- Nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish.
- So‘z boyligini kengaytirish.
- Oddiy gap tuzish va savollarga javob berishga o‘rgatish.

2. Vizual qo‘llanmalar (PECS – Picture Exchange Communication System)

- Rasmlar, kartochkalar, piktogrammalar yordamida muloqot qilish.
- Bolaga kerakli narsani so‘rashni o‘rgatadi.
- Gapirish qiyin bo‘lsa ham, vizual belgilar orqali aloqa qilishi mumkin.

3. Sensor integratsiya mashqlari

- Tez chalg‘ish, sezgirlik (yorug‘lik, tovush, teginishga) kabi qiyinchiliklarni kamaytiradi.
- Bola o‘zini qulay his qilganda nutqiy faoliyat ham yaxshilanadi.

4. Interaktiv texnologiyalar

- Multimedia dasturlari, mobil ilovalar (masalan, nutq o‘rgatuvchi o‘yinlar).
- Video modeling: bolaga kerakli xatti-harakat yoki so‘zlash jarayoni videoda ko‘rsatiladi.

5. Ota-onal ishtiroki

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- Har kuni uyda oddiy so‘zlar va gaplarni mashq qilish.
- Farzandni kichik muloqot vaziyatlariga jalb qilish (savol-javob, salomlashish).

6. Ijtimoiy ko‘nikmalarни rivojlantirish

- Guruh mashg‘ulotlari (o‘yinlar, rolli vaziyatlar).
- Muloqotni rag‘batlantirish: bolaga gapirganda mukofotlash yoki maqtash.

Korreksion yondashuvlar va metodlar :

Logopedik yondashuvlar :

- Fonematik eshitishni rivojlantirish mashqlari.
- Soddalashtirilgan gap tuzish mashqlari.
- Artikulyatsion mashqlar.

Alternativ va qo‘shimcha kommunikatsiya vositalari :

- **PECS (Picture Exchange Communication System)** – rasmli kartochkalar orqali muloqot qilish.
- Gestlar va pictogrammalardan foydalanish.
- Mobil ilovalar va nutqni qo‘llab-quvvatlovchi texnologiyalar.

Psixologik-pedagogik metodlar :

- **ABA (Applied Behavior Analysis)** – mustahkamlash orqali nutq va muloqotni shakllantirish.
- **TEACCH dasturi** – vizual rejlash, strukturaviy yondashuv yordamida kommunikatsiyani osonlashtirish.
- Rolli o‘yinlar orqali ijtimoiy vaziyatlarda muloqotga kirishishni o‘rgatish.

Ota-onalar va pedagoglarning roli

- Uy sharoitida oddiy so‘z va iboralarni muntazam takrorlash.
- Kundalik hayotiy vaziyatlarda (do‘konga borish, o‘yin o‘ynash, ovqatlanish) muloqotni rag‘batlantirish.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- O‘qituvchi va logoped bilan hamkorlikda muntazam mashg‘ulotlar o‘tkazish.

XULOSA

Autizm tarixi shuni ko‘rsatadiki, dastlab u ruhiy kasallik sifatida ko‘rilgan, keyinchalik esa **neyropsixologik rivojlanish buzilishi** sifatida o‘rganila boshlagan. Hozirgi kunda esa autizm spektri buzilishi keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar markazida turibdi. Mazkur tadqiqot davomida autizm sindromiga ega bolalarda nutq va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekani aniqlandi. Eng avvalo, bunday bolalarda ijtimoiy aloqa ehtiyojining pastligi, sezgi tizimlaridagi buzilishlar, takroriy xatti-harakatlar hamda nutqiy imitatsiya qiyinchiliklari ularning nutq rivojlanishida asosiy to‘siq bo‘lib xizmat qilmoqda. Umuman olganda, autizm sindromiga ega bolalarda nutq va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish uzoq muddatli va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon bo‘lib, u integrativ yondashuvni talab etadi. Logopedik mashqlar, alternativ kommunikatsiya vositalari, psixologik yordam va ota-onalar ishtiroki uyg‘unlashgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Atasoy, Z. (2020). *Defektologiya asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Vygotsky, L. S. (1983). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2021). *Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim metodik qo’llanma*. Toshkent.